



## CHINGIZ AYTMATOVNING "BIRINCHI MUALLIM" QISSASIDA ICHKI MONOLOG VA PSIXOLOGIK DETAL.

*Ziyatova Dilorom Pardayevna.*

*Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti.*

*dziyatova11@gmail.com*

### ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning "Birinch muallim" qissasida ichki monolog va psixologik detalning badiiy funksiyasi tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar ruhiyati, ichki ziddiyatlar va xarakter evolyutsiyasi aynan ushbu tasvir vositalari orqali ochilishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida ichki monolog va psixologik detal obraz psixologiyasini chuqurlashtiruvchi asosiy estetik omil ekani aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** ichki monolog, psixologik detal, psixologizm, ruhiy konflikt, badiiy obraz, xarakter dinamikasi.

### KIRISH.

XX asr nasrida inson ruhiy olamini bevosita ochish, qahramon ichki kechinmalarini tahlil qilish yetakchi estetik tamoyillardan biriga aylandi. Chingiz Aytmatovning " Birinchi muallim" qissasi ana shu psixologik realizmning yorqin namunalaridan biridir.

Asarda voqealar rivoji tashqi harakatdan ko'ra ko'proq ichki jarayonlar orqali yoritiladi. Qahramonlar ruhiy dunyosi, ularning iztiroblari, ishonchi va tanlovi ichki monolog hamda psixologik detallar vositasida ochiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - "Birinch muallim qissasida ichki monolog va psixologik detalning badiiy-psixologik funksiyasini tahlil qilishdir.



Asosiy qism. Ichki monolog qahramonning o'z-o'zi bn suhbat, ichki mulohazalari va ruhiy iztiroblarini bevosita ochib beruvchi usuldir. "Birinchi muallim" qissasida bu vosita ayniqsa Oltinoy obrazini yoritishda muhim o'rin tutadi. Oltinoyning o'tmisj voqealarini eslashi, bolalikdagi iztiroblari va Duyshen bilan bog'liq xotiralari ichki monolog orqali berilgan. Bu usul qahramon ruhiyatidagi ikkilanma qo'rquv, orzu va umidni chuqur ifodalaydi.

Chingiz Aytmatovning bu qissasida qirg'iz xalqi va ularning olis qishloqlariga ta'lim tarbiya qanday qilib yetib borganligi, xalq bu yangilikni qanday kutib olganligi haqida so'z boradi. Bu voqea 1924-yil Qirg'izistonning olis qishloqlaridan biri Kurkure nomli qishloqda yuz beradi. Ota-onasi vafot etgan, qo'lida bir tiyin puli bo'lmagan, oddiy komsomolda o'qib kelgan Duyshen ismli yigitning bolalarga qanday ta'lim- tarbiya berganligi, ularni vatan xizmatiga tayyor buyuk inson qilib yetishtirish uchun qancha qiyinchilikni ko'rganligi haqida so'z boradi.

Asar voqelari Duyshenning sobiq o'quvchisi Akademik Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qilinadi. Duyshenga maktab ochishga hech kim yordam bermaydi. Uyma-uy yurib o'quvchi yig'adi, ularni har kuni maktabga o'zi olib borib, dars tugagach yana uyiga eltib qo'yadi. Hamma uning ustidan kuladi. Shunda ham mashaqqatli ishidan voz kechmay o'quvchilarga mehr qo'yadi. Bilganlarini o'rgatadi. U tug'ilib o'sgan yurtning, xalqning farzandlarini savodli qilmoqchi edi Chunki ilm, ma'rifat bilan vatanining kelajagi buyuk bo'lishiga ishonardi. Masalan, Duyshenning bolalarni o'qitishga bo'lgan qat'iyati ko'pincha uning sodda kiyimi, qattiq sharoitda ham sabr bilan ishlashi, tashqi qiyofasidagi jiddiylik orqali ifodalanadi. Bu detallar qahramon ruhiyati haqida bevosita aytilmagan ma'lumotni beradi. Shuningdek, tabiat tasviri ham psixologik detal vazifasini bajaradi. Qorli qish manzaralari, sovuq va og'ir sharoit qahramonlar hayotidagi murakkablikni ramziy tarzda aks ettiradi.



Asarda ichki monolog va psixologik detal bir-birini to'ldiradi. Ichki monolog ruhiy jarayonni bevosita ko'esatsa, detal uni bilvosita obrazli tarzda ochadi. Masalan, Oltinoyning iztirobli xotiralari ichki monolog orqali berilar ekan, uning sukut saqlashi yoki uzoq tikilib qolishi psixologik detal sifatida ruhiy holatni kuchaytiradi.

Ichki monolog yordamida:

- qahramonning ichki konfliktlari ochiladi.
- ruhiy o'sish jarayoni ko'rsatiladi.
- voqealarga subyektiv baho beriladi.
- Natijada o'quvchi voqeani tashqi kuzatuvchi sifatida emas, balki qahramon ruhiyati orqali idrok etadi.

Psixologik detal- bu qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi mayda lekin ma'nodor tasvir unsuri. Aytmatov asarda sukunat, qarash, imo-ishora, muhit tasviri kabi detallar orqali obraz ichki dunyosini ochadi.

#### XULOSA.

"Birinchii muallim" qissasida ichki monolog va psixologik detal detal obraz psixologiyasini ochishning asosiy badiiy vositalaridir. Ichki monolog qahramon ruhiy kechinmalarini bevosita yoritadi, psixologik detal esa ichki holatni ramziy va obrazli shaklda ifodalaydi.

Chingiz Aytmatov ushbu vositalar orqali inson qalbining murakkab va ziddiyatli qatlamlarini ochib, psixologik realizmning mukammal namunalardan birini yaratgan. Barcha kitobxonlarga bu asarni o'qishni tavsiya qilaman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Asil Rashidov So'nmas yulduzlar, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1981-y.206-b.



2. Chingiz Aytmatov Oq kema, Birinchi muallim. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi. 2017-y. 160-180- b
3. Boboyev T Adabiyotshunoslik asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2002. 556- b.
4. Orzubekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. - Toshkent: Fan, 2006. 112-b.
5. To'rayev D. Yangi o'zbek adabiyoti. Toshkent: Fan.2008-y. 56-b.
6. Eshmurodova R, Xushanov A. (2022) Chingiz aytmatovning Birinchi muallim qissasida ustoz obrazi. Eurasian Journal of Academic Research. 2(11) 755- 757.
7. [http/ uz.wikipedia. org/wiki/Chingiz Aytmatov.](http://uz.wikipedia.org/wiki/Chingiz_Aytmatov)